34. Beznosikov va Burnashev toshkentga kelolmay qayerdan qaytishga majbur bo'lishgan ?  
 A) Buxoro B) Farg'ona C) Samarqand D) Chimkent
35. Toshkentlik savdogarlar qachon Irbit yarmarkaga borishgan ?  
 A) 1786-yil B) 1787-yil C) 1796-yil D) 1795-yil
36. Sibir ma'muriyatining ikkinchi bor yuborgan elchilari qachon Toshkentga yetib keldi ?  
 A) 1796-yil B) 1803-yil C) 1792-yil D) 1795-yil
37. Qachon Muhammadxo'ja va Azizxo'ja boshchiligidagi savdo karvoni Sibirga jo'nadi ?  
 A) 1796-yil B) 1792-yil C) 1795-yil D) 1803-yil
38. Sibir ma'muriyati qachon ilk marta Beznosikov va Burnashev rahbarligida Toshkentga javob elchiligini jo'natdi ?  
 A) 1795-yil B) 1796-yil C) 1794-yil D) 1792-yil
39. Toshkentga kelayotgan Sibir elchilarini kim kuzatib keldi?  
 A) Bukey sultonning o'g'li B) Eshim Sulton C) barcha javoblar to'g'ri D) Qorakesak bo'lisi sultoni
40. Toshkent elchilari qaysi yilda Rossiya imperatori huzurida bo'lishdi?  
 A) 1795-yil B) 1796-yil C) 1803-yil D) 1792-yil
41. Qo'qon va Toshkent 1800-yilgi jang qayerda bo'lib o'tgan?  
 A) Farg'ona B) Turkiston C) Qorasuv mavzei D) G'urumsaroy
42. Qurama mavzei qayerda joylashgan?  
 A) Amudaryo sohillarida B) Chirchiq daryosi bo'yida C) Sirdaryoning o'ng sohilida D) Sirdaryo bo'yida
43. G'urumsaroy qayerda joylashgan?  
 A) Chirchiq daryosi bo'yida B) Amudaryo sohillarida C) Sirdaryoning o'ng sohilida D) Sirdaryo bo'yida
44. G'urumsaroy hozirgi qaysi hududga qaraydi?  
 A) Namangan B) O'sh C) Andijon D) Farg'ona
45. Qachon savdogar Rahmatulla karvonboshi boshchiligidagi Toshkent savdogarlari Petropavlovskka qatnab turgan ?  
 A) XVIII asr 70-yillari B) XVIII asr 80-yillari C) XVIII asr 90-yillari D) XVIII asr 60-yillari

## 33-XIX asr boshlarida Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy hayoti (37)

### Testlar

1. Qaysi Qo'qon xoni diniy unvon "eshon"ni bekor qilgan?  
A) Norbo'tabiy B) Muhammad Alixon C) Olimxon D) Umarxon
2. Qachon Qo'qon xoni Olimxon Toshkentda o'ldi degan mish-mish tarqalgan?  
A) 1810-yil B) 1811-yil C) 1809-yil D) 1808-yil
3. Fitnachilar tomonidan otib o'ldirilgan Qo'qon xonini aniqlang  
A) Umarxon B) Norbo'tabiy C) Olimxon D) Muhammad Alixon
4. Qo'qon xoni Umarxon hukmronlik yillarini aniqlang  
A) 1798-1810-yillar B) 1822-1842-yillar C) 1842-1845-yillar D) 1810-1822-yillar
5. Qo'qon xoni Umarxon akasi Olimxon hukmronligi davrida qaysi hududning hokimi edi?  
A) Isfara B) Farg'ona C) Andijon D) Marg'ilon
6. Qaysi tarixchi Umarxon hukmronligi davrini eng yaxshi podsholik davrlaridan biri sifatida tavsiflagan?  
A) Mirzo Isfarangiy B) Muhammad Hakim C) Dilshodi Barno D) Qori Qunduziy
7. Mohlaroyim kimning qizi?  
A) Andijon hokimi Rahmonqulibiy B) qipchoqlar yetakchisi Musulmonqul  
C) Toshkent hokimi Yunusxo'ja D) Isfara hokimi Murodxon
8. Qo'qon xoni Umarxon davrida qaysi hududlar uchun kurashlar oqibatida Buxoro amirligi bilan aloqalar uzilib qoldi?  
A) Jizzax va O'ratepa B) Qorategin va Darboz, Ko'lob C) Urgut va Miyonqol D) Shosh va Usturshona
9. Qaysi Qo'qon xoni kambag'alarga va qalandalarga yer maydonlari hamda chorva mollari berib, ularni mehnatga jalb qiladi?  
A) Norbo'tabiy B) Umarxon C) Olimxon D) Muhammad Alixon
10. Qaysi Qo'qon xoni davrida qo'shinlarning qozoq va qirg'iz elatlariga yurishlari ancha muvaffaqiyatliroq kechdi?  
A) Umarxon B) Muhammad Alixon C) Norbo'tabiy D) Olimxon
11. Qaysi Qo'qon xoni ayrim diniy arboblarni imtihon qiladi va yolg'onchiligi fosh qilinganlarni jazolaydi?  
A) Norbo'tabiy B) Olimxon C) Umarxon D) Muhammad Alixon
12. Qaysi Qo'qon xoni davrida Katta va Kichik juz o'ralarini o'z ichiga oluvchi keng hududlar Qo'qon xonligiga bo'ysundirildi?  
A) Norbo'tabiy B) Olimxon C) Muhammad Alixon D) Umarxon
13. Qo'qon xoni Umarxon davrida Sirdaryo bo'yida qanday harbiy istehkomlar qurildi?  
1) Yangiqo'rg'on 2) Julek 3) Qamishqo'rg'on 4) Oqmasjid 5) Qo'shqo'rg'on  
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 3, 4 D) 1 va 3, 4
14. Qo'qon xonligi hududi kimning hukmronligi davrida ancha kengaydi?  
A) Norbo'tabiy B) Umarxon C) Muhammad Alixon D) Olimxon
15. Umarxon ko'plab harbiy istehkomlarni qurib, qaysi viloyatni o'z ichiga oldi?  
A) Chimkent B) Farg'ona C) Turkiston D) Toshkent
16. Qo'qon xoni Muhammad Alixon hukmronligi yillarini aniqlang  
A) 1842-1845-yillar B) 1798-1810-yillar C) 1810-1822-yillar D) 1822-1842-yillar
17. Muhammad Alixon davrida Qo'qon qo'shinlari tojiklar yashaydigan qayerlarga yurish qilib, bu yerlarni egallaydilar?  
A) Qorategin va Darboz, Ko'lob B) Urgut va Miyonqol C) Jizzax va O'ratepa D) Shosh va Usturshona
18. Qaysi Qo'qon xoni davrida xon hokimiyati bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida mustahkamlangan aloqa buzila boshladi?  
A) Norbo'tabiy B) Olimxon C) Muhammad Alixon D) Umarxon
19. Ruhoniylar qaysi Qo'qon xonini turli axloqsizlik va shariatga qarshi jinoyatlarda ayblab, unga qarshi ochiq targ'ibot olib borishdi?  
A) Norbo'tabiy B) Olimxon C) Umarxon D) Muhammad Alixon
20. Amir Nasrullo qachon Qo'qon xonligiga yurish qilib, MadAlixon va Nodirabegimni qatl etdi?  
A) 1841-yil B) 1840-yil C) 1843-yil D) 1842-yil
21. Amir Nasrulloning Qo'qondagi noibini aniqlang  
A) Ibrohim dodhoh B) Olloyor devonbegi C) Matmurod devonbegi D) Qurbonjon dodhoh
22. Qo'qon xonligida 1842-yildagi Buxoro amirligiga qarshi qo'zg'olonning sababini aniqlang.  
A) Ibrohim dodhohning aholini hashar ishlariga jalb qilishi B) Buxoro amirligining aholiga o'tkazgan zulmi  
C) Ibrohim dodhohning avval undirib kelingan soliqlarga qo'shimcha ravishda Buxoro amirligining ham soliqlarini joriy qilishi bilan  
D) Buxoro amirligi tomonidan Qo'qonda uyushtirgan hunrezligi
23. 1842-yilda Qo'qon xonligi Farg'ona vodiysida ko'chib yurgan qaysi xalqlardan yordam olib, Buxoro amirligidan mustaqilligini tiklab oldilar?  
A) qozoqlar B) qipchoqlar C) turkmanlar D) jung'orlar
24. Qo'qon xonligi 1842-yilda Buxoro amirligidan mustaqil bo'lgandan keyin kimni xon qilib ko'tardilar?  
A) Nasriddin B) Murod C) Xudoyor D) Sherali
25. Qo'qon xonligida Musulmonqul qanday mansabga ko'tarilgan?  
A) qo'shbegi B) mingboshi C) xudoychi D) parvonachi
26. Buxoro amiri Nasrullo Qo'qonga ikkinchi marta yurish qilib, 40 kun qamaldan so'ng ham bosib olib bilmay Buxoroga qaytadi. Bunga sabab nima?  
A) otlarga o'lat tegib, askarlar orasida sarosimaning boshlanishi  
B) sovuq yaqinlashib qolishi va oziq-ovqat, yem-xashak zaxiralarning yetishmasligi  
C) mahalliy aholining mardonovor mudofaa janglari  
D) Xiva xoni Olloqulixonning Buxoro amirligiga qilgan hujumi
27. Qo'qon xonligida soliqlarning haddan tashqari og'irligidan norozi bo'lib qachon va qayerda qo'zg'olon ko'tarildi va buni Musulmonqul bostirdi?  
A) 1845-yil Chust B) 1845-yil Marg'ilon C) 1845-yil Namangan D) 1845-yil O'sh
28. Musulmonqul SherAlixonni taxtdan tushirib, kimni Qo'qon taxtiga chiqardi?  
A) Xudoyorxon B) Murodxon C) Isfara hokimi D) Musulmonqul
29. Qo'qon xoni Murodxon kimning o'g'li?  
A) Hojibek B) Olimxon C) Umarxon D) Norbo'tabiy

30. Qo'qon xoni SherAlixon kimning o'g'li?  
 A) Olimxon B) Umarxon C) Hojibek D) Norbo'tabiy
31. Musulmonqul o'z qo'shini bilan qayerga kelib, o'z qizini 13 yoshli Xudoyorxonga nikohlab beradi?  
 A) O'sh B) Marg'ilon C) Isfara D) Namangan
32. Xudoyorxon Qo'qon xoni bo'lmasdan oldin qayerning hokimi edi?  
 A) Marg'ilon B) Isfara C) Namangan D) O'sh
33. Musulmonqul kimni taxtdan tushirib, o'z kuyovi Xudoyorxonni Qo'qon xonligi taxtiga o'tqazadi?  
 A) Murodxon B) Umarxon C) SherAlixon D) Muhammad Alixon
34. Xudoyorxon kimning o'g'li?  
 A) Umarxon B) SherAlixon C) Murodxon D) Muhammad Alixon
35. Musulmonqul qaysi rus qo'mandonligi vakili bilan uchrashgan?  
 A) Veryovkin-Roxalskiy B) Chernyayev-Veryovkin C) Velyaminov-Zernov D) Skobelev-Kaufman
36. Xudoyorxon qachon qipchoqlar qirg'inini uyushtiradi?  
 A) 1851-yil 9-oktyabr B) 1852-yil 9-sentyabr C) 1851-yil 9-sentyabr D) 1852-yil 9-oktyabr
37. Xudoyorxon qayerdan chaqirilgan qo'shin bilan qipchoqlar qirg'inini uyushtiradi?  
 A) Isfara B) Chimkent C) Toshkent D) Qo'qon

## 34-Qo'qon xonligida iqtisodiy hayot (17)

### Testlar

1. Qaysi xonlikda aholi sun'iy sug'orish mahoratini mukammal egallagan edi?  
A) Toshkent bekligi B) Buxoro amirligi C) Qo'qon xonligi D) Xiva xonligi
2. Rossiya qaysi mahsulotga bojni ham bekor qilgan edi?  
A) paxta B) g'alla C) oltin D) ipak
3. Qo'qon xonligida yer egalari .....  
A) yerdan tushadigan daromadga va shu yerda qurilgan imoratlarga emas, shu yerning o'ziga egalik qilishgan  
B) yerga emas, shu yerdan tushadigan daromadga va shu yerda qurilgan imoratlarga egalik qilishgan  
C) yerini avloddan avlodga meros qilib o'tkazishgan va yerga to'la egalik qilishgan  
D) yer va uning ustidagi hosil, qurilgan binolarga egalik qilishgan
4. Qo'qon xonligida xususiy mulk yerlari qancha sotixgacha borgan?  
A) 30 sotixdan 60 sotixgacha B) 30 sotixdan 70 sotixgacha C) 30 sotixdan 50 sotixgacha  
D) 20 sotixdan 60 sotixgacha
5. Qo'qon xonligida xon yerida majburan ishlashga safarbar etilganlar qanday nomlanadi?  
A) chorikorlar B) mardikorlar C) yarimchilar D) korandalar
6. Qo'qon xonligida hosilning 1/4 qismi uchun yollanib ishlovchi yersiz dehqonlar qanday nomlangan?  
A) korandalar B) yarimchilar C) mardikorlar D) chorikorlar
7. Qo'qon xonligida hosilning yarmi uchun yollanib ishlovchi yersiz dehqonlar qanday nomlangan?  
A) mardikorlar B) yarimchilar C) chorikorlar D) korandalar
8. Qo'qon xonligida yer solig'i bo'lgan xiroj qancha miqdorda olingan?  
A) 1/3-1/6 qismi B) 1/2-1/5 qismi C) 1/3-1/5 qismi D) 1/2-1/4 qismi
9. Qo'qon xonligida zakotning qanday turlari mavjud edi?  
1) "qo'ra boshi" 2) "xiroj" 3) "qopchur" 4) "yig'im soliq" 5) "tutun haqi" 6) "uloq tutuv"  
A) 1, 2, 3 B) 4, 5, 6 C) 2, 4, 6 D) 1, 4, 5
10. Qo'qon xonligida bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq (zakot) qanday nomlanadi?  
A) "targ'u" B) "qo'ra boshi" C) "tutun haqi" D) "yig'im soliq"
11. Qo'qon xonligida zakot to'lamaydigan boylar va ularning qarindoshlarining bekka beradigan 9 buyumdan iborat in'omlari yig'imi qanday nomlanadi?  
A) "tutun haqi" B) "targ'u" C) "yig'im soliq" D) "qo'ra boshi"
12. Qo'qon xonligida ko'chmanchi chorvadorlardan moli boshiga va qo'rasiga qarab olinadigan, qishda mollar qo'ralarida turganida yig'ib olinadigan soliq qanday nomlanadi?  
A) "tutun haqi" B) "yig'im soliq" C) "targ'u" D) "qo'ra boshi"
13. Qo'qon xonligida oltin ma'dani qaysi hududlardan qazib olingan?  
1) Kosonsoy (Namangan)  
2) Qurama mavzeidan  
3) Qoratog' shimolidagi Ko'krev daryosidan  
4) Qorasuv mavzeidan  
5) Chirchiq daryosi bo'ylari  
6) Qoradaryoning yuqori oqimidan  
7) Chotqol daryosi yuqori oqimi  
A) 4, 5, 6, 7 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 3, 5, 7 D) 2, 4, 6, 7
14. Qo'qon xonligida qayerda qog'oz ishlab chiqarilgan?  
A) Darvozai Mansur mahallasida B) Marg'ilon  
C) Kavushdo'zlar mahallasida D) Mo'yi muborak darvozasi orqasidagi maqbara yonida
15. Qo'qon xonligida qaysi kunlari bozor bo'lgan?  
A) seshanba va payshanba B) shanba va yakshanba C) dushanba va juma D) yakshanba va chorshanba
16. Qashqar bilan savdo qaysi hudud orqali olib borilgan?  
A) Yettisuv B) Qo'qon C) Sharqiy Turkiston D) Toshkent
17. Qo'qondan Qashqarga qanday mahsulotlar olib borilgan?  
1) temir 2) qizil charm 3) kumush buyumlar 4) baxmal 5) ipak 6) ipdan to'qilgan matolar 7) la'l 8) oltin  
A) 1, 2, 5, 6, 8 B) 1, 2, 3, 4, 5 C) 1, 3, 5, 7, 8 D) 2, 4, 6, 7, 8

## 35-Qo'qon xonligi shaharlari (25)

### Testlar

1. Qo'qon shahriga oid ma'lumotlar qaysi asrdan boshlab uchraydi?  
A) XII asr B) XI asr C) X asr D) IX asr
2. Qo'qon shahrining yoshi necha yildan ortiq?  
A) 1500 yildan B) 800 yildan C) 3000 yildan D) 2000 yildan
3. Qaysi so'z "go'zal", "yoqimli", "xushmanzara", "shamol shahri" degan ma'nolarni anglatadi?  
A) Ho'qand B) Qo'qon C) Havoqand D) Ho'qandi latif
4. Qo'qon xonligining qayerida katta kuch bilan Yangi ariq kanali qazilgan?  
A) Qo'qon B) Andijon C) Marg'ilon D) Namangan
5. XVIII-XIX asr birinchi yarmida qaysi shahar Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridan biriga aylandi?  
A) Toshkent B) Samarqand C) Buxoro D) Qo'qon
6. Qo'qon shahriga necha darvozadan kiritilgan?  
A) 10 ta B) 12 ta C) 6 ta D) 4 ta
7. Qo'qon shahri nima uchun 12 darvozadan iborat?  
A) 12 dahadan iborat bo'lganligi B) 12 ta viloyatdan iborat bo'lganligi C) 12 ta hudud bilan savdo-sotiq qilganligi uchun D) 12 ta tumandan iborat bo'lganligi
8. XIX asr o'rtalaridagi Qo'qon shahridagi madrasalarni aniqlang  
1) MadAlixon 2) Safed 3) Norbo'tabek 4) Xoja Qurbonbiy 5) Jome 6) Shermuhammadbiy 7) Hojimoymim
- 8) Qurbonjon dodhoh 9) Xoja dodhoh 10) Mingoyim  
A) 5, 6, 7, 8, 9 10 B) 1, 3, 5, 7, 9, 10 C) 2, 4, 6, 8, 9, 10 D) 1, 2, 3, 4, 5, 6
9. Qo'qon xonligida qaysi shahrga bundan 2000 yil avval asos solingan?  
A) Andijon B) Axsikant C) Marg'ilon D) Namangan
10. Qaysi O'rta Osiyo xonligida katta shaharlarga xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari hokim etib tayinlangan?  
A) Xiva xonligi B) Qo'qon xonligi C) Toshkent bekligi D) Buxoro amirligi
11. Qo'qon xonligida qaysi shahar "Buyuk ipak yo'li"da tashkil topgan?  
A) Marg'ilon B) Namangan C) Axsikant D) Andijon
12. Qo'qon xonligida qaysi shahar pilla sotiladigan asosiy bozor markazi edi?  
A) Namangan B) Axsikant C) Marg'ilon D) Andijon
13. Qo'qon xonligida qaysi shaharning nomi "andi", "adoq" kabi urug' atamallari bilan bog'liq?  
A) Axsikant B) Namangan C) Marg'ilon D) Andijon
14. Sulton Murodbek saroyi qaysi shaharda joylashgan?  
A) Marg'ilon B) Namangan C) Axsikant D) Andijon
15. Arablar bosqini arafasida Andijon qanday nomlangan?  
A) Andaron B) Andigon C) Andukon D) Andajon
16. Qo'qon xonligining siyosiy, madaniy, iqtisodiy va diniy markazi qaysi shahar edi?  
A) Qo'qon B) Marg'ilon C) Andijon D) Namangan
17. Qaysi shahar XV asrdan boshlab Farg'ona vodiysining markazi bo'lgan?  
A) Marg'ilon B) Andijon C) Qo'qon D) Namangan
18. "Oshlig'i vofir, mevasi faravon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur...Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidan so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. To'qqiz tarnov suv kirar" ta'riflari qaysi shahar haqida keltirilgan?  
A) Andijon B) Qo'qon C) Marg'ilon D) Namangan
19. Andijon necha dahaga bo'lingan?  
A) 4 daha B) 6 daha C) 3 daha D) 5 daha
20. Qo'qon xonligida qaysi hududning nomi tuz koni degan ma'noni anglatadi?  
A) Marg'ilon B) Axsikant C) Andijon D) Namangan
21. Namangan nomi manbalarda qaysi asrdan boshlab uchraydi?  
A) XVIII asr B) XV asr C) XVI asr D) XVII asr
22. Namangan qaysi asrda Qo'qon xonligi hududiga kirgan?  
A) XVIII asr B) XV asr C) XVI asr D) XVII asr
23. Qo'qon xonligining Namangan shahrida qachon va katta kuch bilan Yangi ariq kanali qazilgan?  
A) 1819-1822-yillar B) 1842-1845-yillar C) 1824-1827-yillar D) 1817-1820-yillar
24. 1842-1845-yillarda qaysi shahar baland devor bilan o'rab olingan?  
A) Marg'ilon B) Qo'qon C) Namangan D) Andijon
25. Namangan aholisi qaysi soha bilan shug'ullangan?  
A) savdo-sotiq B) dehqonchilik C) chorvachilik D) hunarmandchilik

## 36-Qo'qon xonligida madaniy hayot (50)

### Testlar

1. Qo'qonda necha maktab va madrasa faoliyat yuritgan?

- A) 120 maktab va 40 madrasa B) 90 maktab va 20 madrasa C) 100 maktab va 103 ta madrasa  
D) 80 maktab va 10 madrasa

2. Marg'ilonda necha maktab va madrasa faoliyat yuritgan?

- A) 80 maktab va 10 madrasa B) 90 maktab va 20 madrasa C) 120 maktab va 40 madrasa  
D) 100 maktab va 103 ta madrasa

3. Qaysi Qo'qon xoni ilm-fanga homiylik qilgan?

- A) Umarxon B) Olimxon C) Norbo'tabiy D) Muhammad Alixon

4. Qachon va qaysi hukmdorning sa'y-harakatlari natijasida Qo'qonda o'ziga xos ilmiy-madaniy muhit vujudga keldi?

- A) XIX asr boshlari-Umarxon B) XIX asr boshlari-Nodira C) XIX asr oxiri-Olimxon  
D) XIX asr o'rtalari-Muhammad Alixon

5. Umarxon yashagan yillarini aniqlang

- A) 1786-1822-yillar B) 1810-1842-yillar C) 1788-1822-yillar D) 1787-1822-yillar

6. Umarxonning taxallusini aniqlang

- A) Umariy B) Amiriy C) Xojib D) Ubaydiy

7. Qaysi hukmdor atrofida 70 dan ortiq shoir yig'ilgan?

- A) Umarxon B) Olimxon C) Muhammad Alixon D) Norbo'tabiy

8. Umarxon topshirig'i bilan Fazliy Namangoniy qanday tazkira yozgan?

- A) "Umarnoma" B) "Majmuai shoirin" C) "Majolis un nafa'is" D) "Majmuat ush-shuaro"

9. Amiriy qaysi tillarda she'rlar yozgan?

- A) o'zbek va fors B) fors va turk C) arab va turk D) arab va fors

10. Amiriyning g'azalar devoni 1882-yilda qayerda chop etilgan?

- A) Istanbul B) Isfaxon C) Samarand D) Toshkent

11. Amiriyning g'azalar devoni 1905-yilda qayerda chop etilgan?

- A) Istanbul B) Toshkent C) Isfaxon D) Samarand

12. "Majmuai shoirin" tazkirasini qancha shoirning ijodini o'z ichiga oladi?

- A) 65 ta B) 63 ta C) 62 ta D) 61 ta

13. Maxmurning asl ismini aiqlang

- A) Muhammad Sharif B) Mirzo Abdulqodir C) Maxmud D) Mirobid

14. Maxmur yashagan yillarini aniqlang

- A) XVIII asr oxiri-1844-yil B) 1640-1711-yillar C) 1780-1841-yillar D) 1792-1842-yillar

15. Maxmur qaysi madrasada o'qigan?

- A) Mirarab B) Ko'kaldosh C) Madrasai Mir D) Hojimoym

16. Qaysi qo'qonlik shoir Amir Umarxon qo'shinida sipohilik qilgan?

- A) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy B) Fazliy Namangoniy  
C) Maxmur D) Mushrif Isfarangiy

17. Maxmurning ijodi qancha misra she'rni tashkil qiladi?

- A) 3707 misra B) 7275 misra C) 10 ming misra D) 3717 misra

18. Milliy adabiyotda ijtimoiy hajviyani yuksak pog'onaga ko'targan shoirni aniqlang

- A) Gulxaniy B) Maxmur C) Turdi Farog'iy D) Mashrab

19. "Hapalak" she'rining muallifini aniqlang

- A) Turdi Farog'iy B) Gulxaniy C) Maxmur D) Mashrab

20. Gulxaniyning haqiqiy ismini aniqlang

- A) Maxmud B) Mirobid C) Muhammad Sharif D) Mirzo Abdulqodir

21. Gulxaniy qachon va qayera tug'ilgan?

- A) 1770-yil Tojikistonning Tavildara tumanida B) 1780-yil Andijon  
C) 1770-yil Qo'qon D) 1792-yil Qo'qon

22. Gulxaniy muhtojlik oqibatida qayerga kelib mardikorlik qilgan?

- A) Marg'ilon B) Andijon C) Qo'qon D) Namangan

23. Gulxaniy qayerda hammomga o't yoquvchi ya'ni go'lax bo'lib ishlaydi?

- A) Marg'ilon B) Qo'qon C) Namangan D) Andijon

24. O'zbek adabiyotida poeziyaga masalni mustaqil janr sifatida birinchi bo'lib kiritgan ijodkor kim edi?

- A) Gulxaniy B) Turdi Farog'iy C) Maxmur D) Mashrab

25. Gulxaniyning butun sharq adabiyotidagi mashhur asarini aniqlang

- A) "Maxmur" B) "Zarbulmasal" C) "Qushlar munozarasi" D) "Husni dil"

26. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asariga quyidagi qaysi masal kirmagan?

- A) "Tuya bilan Bo'taloq" B) "Toshbaqa bilan Chayon" C) "Echki va Bo'taloq" D) "Maymun va Najjor"

27. Jahon Otinning taxallusini aniqlang

- A) Uvaysiy B) Komila C) Nodira D) Maknuna

28. Uvaysiyning yashagan yillarini aniqlang

- A) 1640-1711-yillar B) XVIII asr oxiri-1844-yil C) 1780-1841-yillar D) 1792-1842-yillar

29. Amir Umarxon Marg'ilon hokimi bo'lgan yillarni aniqlang

- A) 1808-1809-yillar B) 1805-1806-yillar C) 1806-1807-yillar D) 1807-1808-yillar

30. Uvaysiyning adabiy mersoini aniqlang.

- A) 269 g'azal, 30 muxammas, 3 doston B) 268 g'azal, 29 muxammas, 3 doston  
C) 269 g'azal, 30 muxammas, 4 doston D) 269 g'azal, 29 muxammas, 3 doston

31. Nodiraning yashagan yillarini aniqlang

- A) 1780-1841-yillar B) XVIII asr oxiri-1844-yil C) 1640-1711-yillar D) 1792-1842-yillar

32. Nodira qaysi shaharda tug'ilgan?

- A) Farg'ona B) Marg'ilon C) Andijon D) Qo'qon
33. Nodiraning otasi Rahmonqulibiy qayerning hokimi edi?  
A) Farg'ona B) Marg'ilon C) Andijon D) Qo'qon
34. Umarxon qayerga hokim etib tayinlangandan so'ng Nodiraga uylangan?  
A) Farg'ona B) Qo'qon C) Andijon D) Marg'ilon
35. Qo'qonda kim yaxshi xattolarga, naqqoshlarga tilla qalam, kumush qalamdon sovg'a qilgan?  
A) Nodira B) Uvaysiy C) Gulxaniy D) Umarxon
36. Mohlaroyim qaysi taxallusida 19 g'azaldan iborat devon tuzgan?  
A) Komila B) Uvaysiy C) Komila D) Maknuna
37. Mohlaroyim qaysi taxallusida 333 g'azaldan iborat devon tuzgan?  
A) Uvaysiy B) Maknuna C) Komila D) Komila
38. Mohlaroyim qaysi taxallusida 180 she'rdan iborat devon tuzgan?  
A) Uvaysiy B) Maknuna C) Komila D) Nodira
39. Nodiradan qancha misra lirik adabiy meros qolgan?  
A) 10 ming misra B) 7275 misra C) 3717 misra D) 3707 misra
40. Qaysi ijodkrning she'rlarida muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, oh-fig'onlari kuylanadi?  
A) Nodira B) Mashrab C) Uvaysiy D) Anbar Otin
41. Nodira kimning g'azalariga muxammaslar yozmagan?  
A) Lutfiy B) Fuzuliy C) Navoiy D) Bedil
42. Mashrabning yashagan yillarini aniqlang  
A) 1640-1711-yillar B) XVIII asr oxiri-1844-yil C) 1792-1842-yillar D) 1780-1841-yillar
43. Mashrabni qatl qilgan Mahmudbiy otaliq qayerning hokimi edi?  
A) Chorjo'y B) Marg'ilon C) Balx D) Miyonqol
44. Mashrab qayerda tug'ilgan?  
A) Qo'qon B) Marg'ilon C) Andijon D) Namangan
45. Dinga shak keltirganlikda ayblanib, g'anamlar ig'vosi bilan Mashrab qachon qatl etilgan?  
A) 1712-yil B) 1709-yil C) 1711-yil D) 1710-yil
46. Mashrabning necha yoshidan savodi chiqqan?  
A) 20 yosh B) 7 yosh C) 15 yosh D) 18 yosh
47. Mashrab necha yoshidan boshlab tasavvuf ilmini egallay boshlaydilar?  
A) 20 yosh B) 7 yosh C) 18 yosh D) 15 yosh
48. Mashrab necha yil davomida dunyoning juda ko'p mamlakatlarini kezib chiqqan?  
A) 15 yil B) 8 yil C) 20 yil D) 18 yil
49. Kim o'z she'rlarida hukmron tabaqalarning mehnatkash xalqqa o'tkazgan jabr-zulmlarini, ochko'zligini, ba'zi ruhoniylar va eshonlarning avom xalqni do'zax azoblari bilan dahshatga solayotganligini ayovsiz fosh qiladi?  
A) Mashrab B) Maxmur C) Turdi Farog'iy D) Gulxaniy
50. Dinga shak keltirganlikda ayblanib, g'anamlar ig'vosi bilan Mashrab kim tomonidan qatl etilgan?  
A) Muhammad Hoji otaliq B) Jovshon Qalmoq C) Hakimbiy D) Mahmudbiy Qatag'on

## 37-Qo'qonda tarixnavislik san'at va me'morchilik (33)

### Testlar

1. Qaysi asrlarda Qo'qon xonligida ko'plab tarixiy asarlar yaratilgan?  
A) XVI-XVII asrlar B) XVIII-XIX asrlar C) XVI-XVIII asrlar D) XVII-XVIII asrlar
2. Amir Umarxon topshirig'i bilan Fazliy Namangoniy qachon "Umarnoma" dostonini yozgan?  
A) 1824 -yil B) 1826-yil C) 1820-yil D) 1822-yil
3. "Umarnoma" dostoni necha baytdan iborat?  
A) 4000 bayt B) 3000 bayt C) 2000 bayt D) 5000 bayt
4. Fazliy Namangoniy tazkirasini aniqlang  
A) "Majmuat ush-shuaro" B) "Malik-ush shuaro" C) "Majolis un nafois" D) "Majmuai shoiron"
5. "Shohnomayi nusratpayom" asarining muallifi kim?  
A) Hakimxon To'ra ubn Sayid Ma'sumxon B) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy  
C) Mulla Ali qori Qunduziy D) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy
6. Qo'qon xoni Norbo'tabekning nabirasi bo'lgan tarixchini aniqlang  
A) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy B) Mulla Ali qori Qunduziy  
C) Hakimxon To'ra ubn Sayid Ma'sumxon D) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy
7. Amir Umarxon saroyida qoziaskar lavozimida ishlagan tarixchini aniqlang.  
A) Mulla Ali qori Qunduziy B) Hakimxon To'ra ubn Sayid Ma'sumxon  
C) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy D) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy
8. Hakimxon To'ra ubn Sayid Ma'sumxon yashagan yillarini aniqlang  
A) 1786-1858-yillar B) 1822-1848-yillar C) 1802-1872-yillar D) 1802-1870-yillar
9. Qaysi Qo'qon tarixchisi Muhammad Alixon davrida quvg'inga uchrab Rossiyaga, Sharq mamlakatlariga sayohat qilishga majbur bo'lgan?  
A) Mulla Ali qori Qunduziy B) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy  
C) Hakimxon To'ra ubn Sayid Ma'sumxon D) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy
10. Hakimxon To'ra ubn Sayid Ma'sumxon umrining oxirida qayerda yashagan?  
A) Miyonqol B) Shaxrisabz C) Balx D) Qo'qon
11. Hakimxon To'ra ubn Sayid Ma'sumxon qanday asar yozgan?  
A) "Tavorixi manzuma" B) "Umarnoma" C) "Tarixi Shohruhiy" D) "Muntaxab ut-tavorix"
12. Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy yashagan yillarini aniqlang  
A) 1802-1870-yillar B) 1822-1848-yillar C) 1786-1858-yillar D) 1802-1872-yillar
13. "Tarixi Shohruhiy" asari kim tomonidan yozilgan?  
A) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy B) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy  
C) Mulla Ali qori Qunduziy D) Hakimxon To'ra ubn Sayid Ma'sumxon
14. Qaysi Qo'qon tarixchisi harbiy lavozimlarda ishlagan?  
A) Hakimxon To'ra ubn Sayid Ma'sumxon B) Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy  
C) Mulla Ali qori Qunduziy D) Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy
15. Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy qaysi yilgacha bo'lgan Qo'qon tarixini ko'pincha o'z ko'zi bilan ko'rgan va bo'lgan voqealarni bayon etgan?  
A) XIX asrning 70-yillari B) 1872-yil C) 1874-yil D) 1870-yil
16. "Tarixi jahonmayi" asarining muallifi kim?  
A) Dilshodi Barno B) Muhammad Solih C) Junayd Mulla Avaz Muhammad
17. "Tarixi jadidayi Toshkand" asarining muallifi kim?  
A) Muhammad Solih B) Junayd Mulla Avaz Muhammad C) Dilshodi Barno D) Mulla Ali qori Qunduziy
18. "Tavorixi manzuma" asarining muallifi kim?  
A) Mulla Ali qori Qunduziy B) Junayd Mulla Avaz Muhammad C) Dilshodi Barno D) Muhammad Solih
19. Qo'qonning 1822-1848-yillar tarixi bayon etilgan asarni aniqlang?  
A) "Muntaxab ut-tavorix" B) "Tavorixi manzuma" C) "Umarnoma" D) "Tarixi Shohruhiy"
20. "Tarixi muhojiron" asarining muallifi kim?  
A) Dilshodi Barno B) Junayd Mulla Avaz Muhammad C) Mulla Ali qori Qunduziy  
D) Muhammad Solih
21. "Tarixi Shohruhiy" asari qachon yozilgan?  
A) 1870-yil B) 1874-yil C) 1872-yil D) XIX asrning 70-yillari
22. "Inson matonati va muhojirlar tarixi" asarining muallifi kim?  
A) Dilshodi Barno B) Junayd Mulla Avaz Muhammad C) Mulla Ali qori Qunduziy  
D) Muhammad Solih
23. "Tarixi jadidayi Toshkand" asari Turkistonning qaysi asrlar tarixi haqida qimmatli manba hisoblanadi?  
A) XVI-XIX asrlar B) XV-XVIII asrlar C) XVII-XIX asrlar D) XV-XIX asrlar
24. Mulla Ali qori Qunduziy yashagan yillarini aniqlang  
A) 1802-1870-yillar B) 1822-1848-yillar C) 1786-1858-yillar D) 1802-1872-yillar
25. Qo'qondagi mashhur xattotlarni aniqlang  
1)Rojiy 2)Muhammad Latif 3)Sanoiy 4)Mirzo Dabir 5)Hamadoniy 6)Abulg'oziyo'ja  
A) 2, 4, 6 B) 4, 5, 6 C) 1, 3, 5 D) 1, 2, 3
26. Qo'qondagi Madrasayi Mir nomi bilan shuhrat qozongan madrasani aniqlang  
A) Norbo'tabiy madrasasi B) Ko'kaldosh madrasasi C) Mirarab madrasasi D) Mingoyim madrasasi
27. Umarxon Turkiston va uning atroflarini-Orolbo'yidan Yettisuvgacha egallab qanday qal'alarni bunyod ettirdi?  
1)Oqmachit 2)Avliyoota 3)Pishpak 4)Tarozi 5)Chimkent 6)Sayram  
A) 1, 2, 3 B) 2, 4, 6 C) 4, 5, 6 D) 1, 3, 5
28. Oqmachit qal'asining yana bir nomini aniqlang  
A) Qizil O'rda B) Gorgan C) Jambul D) Bishkek



29. Avliyoota qal'asining yana bir nomini aniqlang  
A) Gorgan B) Qizil O'rda C) Bishkek D) Jambul
30. Pishpak qal'asining yana bir nomini aniqlang  
A) Bishkek B) Gorgan C) Jambul D) Qizil O'rda
31. Shayx Xovandi Tohur me'moriy majmuasi qayerda joylashgan ?  
A) Qo'qon B) Samarqand C) Toshkent D) Buxoro
32. Qaysi shaharda Zayniddin bobo uchun yangi maqbara qad ko'tardi ?  
A) Toshkent B) Buxoro C) Samarqand D) Qo'qon
33. Kimning Eski O'rdasi buzilib, yangi markaz Qo'qon O'rdasi bunyod etildi ?  
A) Shohruxbiy B) Sultonxo'ja C) Yunusxo'ja D) Umarxon

## 38-XVI-XVIII asrlarda xalqaro munosabatlar (42)

### Testlar

1. Muhammad Alixondan yordam olgan Yusufxo'ja Qashqarni egallaganidan so'ng qayerni egallash uchun harakatini davom ettiradi?  
A) Yorkent B) Balosog'un C) Yettisuv D) O'sh
2. Yusufxo'janing Sin imperiyasidan mag'lubiyati sababini aniqlang  
A) qo'zg'alongning uyshmaganligi  
B) Buxoro-Qo'qon munosabatlarining yomonlashuvi oqibatida Qo'qon xonligi Yusufxo'jaga yordam uchun yuborgan qo'shinini chaqirib oladi  
C) Yusufxo'janing Qo'qon xonligi bilan munosabatlarining yomonlashuvi  
D) Xiva-Qo'qon munosabatlarining yomonlashuvi oqibatida Qo'qon xonligi Yusufxo'jaga yordam uchun yuborgan qo'shinini chaqirib oladi
3. Sin imperiyasiga qarshi qo'zg'along yengilgach Yusufxo'ja boshliq qancha uyg'ur oilasi Farg'ona vodiysiga ko'chib kelgan?  
A) 80 ming B) 70 ming C) 60 ming D) 50 ming
4. Qachon va qayerda Xitoy-Qo'qon shartnomasi imzolandi?  
A) 1832-yil Yorkent B) 1832-yil Pekin C) 1832-yil Qashqar D) 1832-yil Qo'qon
5. Xitoy-Qo'qon shartnomasiga ko'ra birinchidan.....  
A) Xitoy Sharqiy Turkistonda qo'qonlik savdogarlar faoliyatini taqiqlashni bekor qilgan  
B) Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi berildi  
C) Shariy Turkistonda savdo qiluvchi markaziy osiyolik savdogarlar to'laydigan to'lovlarni yig'ib olish huquqi Qo'qon xonligiga berilgan  
D) Sharqiy Turkistondan Qo'qon savdogarlari chiqarib yuborilganda ulardan tortib olingan mol-mulkleri evaziga Qo'qon xonligiga tovon to'lagan
6. Xitoy-Qo'qon shartnomasiga ko'ra ikkinchidan.....  
A) Xitoy Sharqiy Turkistonda qo'qonlik savdogarlar faoliyatini taqiqlashni bekor qilgan  
B) Shariy Turkistonda savdo qiluvchi markaziy osiyolik savdogarlar to'laydigan to'lovlarni yig'ib olish huquqi Qo'qon xonligiga berilgan  
C) Sharqiy Turkistondan Qo'qon savdogarlari chiqarib yuborilganda ulardan tortib olingan mol-mulkleri evaziga Qo'qon xonligiga tovon to'lagan  
D) Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi berildi
7. Xitoy-Qo'qon shartnomasiga ko'ra uchinchidan.....  
A) Xitoy Sharqiy Turkistonda qo'qonlik savdogarlar faoliyatini taqiqlashni bekor qilgan  
B) Shariy Turkistonda savdo qiluvchi markaziy osiyolik savdogarlar to'laydigan to'lovlarni yig'ib olish huquqi Qo'qon xonligiga berilgan  
C) Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi berildi  
D) Sharqiy Turkistondan Qo'qon savdogarlari chiqarib yuborilganda ulardan tortib olingan mol-mulkleri evaziga Qo'qon xonligiga tovon to'lagan
8. Xitoy-Qo'qon shartnomasiga ko'ra to'rtinchidan.....  
A) Sharqiy Turkistondan Qo'qon savdogarlari chiqarib yuborilganda ulardan tortib olingan mol-mulkleri evaziga Qo'qon xonligiga tovon to'lagan  
B) Xitoy Sharqiy Turkistonda qo'qonlik savdogarlar faoliyatini taqiqlashni bekor qilgan  
C) Shariy Turkistonda savdo qiluvchi markaziy osiyolik savdogarlar to'laydigan to'lovlarni yig'ib olish huquqi Qo'qon xonligiga berilgan  
D) Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi berildi
9. XVI asrda Osiyoda qaysi yirik uch siyosiy kuch maydonga chiqdi ?  
1) Movarounnahrda shayboniylar 2) Eronda safaviylar 3) Hindistonda boburiylar
- 4) Turkiyada Usmonli turklar 5) Xitoyda Sin 6) Kavkazda Bulg'or xonligi
- A) 2, 4, 6 B) 4, 5, 6 C) 1, 3, 5 D) 1, 2, 3
10. Boburiylar, safaviylar, shayboniylar manfaatlari to'qnashgan nuqta qaysi hudud edi ?  
A) Eron B) Hindiston C) Movarounnahr D) Xuroson
11. Qaysi hudud Movarounnahr, Eron, Hindiston yo'nalishidagi o'ziga xos bir darvoza vazifasini o'tagan ?  
A) Sharqiy Turkiston B) Yettisuv C) Isfaxon D) Xuroson
12. Xurosonni nazorat qilish masalasida qaysi sulolalar o'rtasida keskin kurash ketgan ?  
A) shayboniylar va boburiylar B) boburiylar va safaviylar C) ashtarxoniylar va boburiylar  
D) shayboniylar va safaviylar
13. Xurosonni nazorat qilish masalasida qaysi hukmdorlar davrida shayboniylarning qo'li baland kelgan ?  
A) Ubaydullaxon, Abdullaxon, Abdulmo'mon B) Ko'chkunchixon, Abdullaxon, Shayboniyxon  
C) Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon D) Shayboniyxon, Ko'chkunchixon, Abdulmo'min
14. Abdullaxon Akbarshoh huzuriga necha marta elchi yuborgan ?  
A) 5 marta B) 4 marta C) 3 marta D) 2 marta
15. Akbarshoh elchisi qachon Buxoroda bo'lgan ?  
A) 1586-yil B) 1585-yil C) 1577-yil D) 1572-yil
16. Akbarshohning o'g'li Jahongirshoh hukmronlik yillarini aniqlang  
A) 1558-1605-yillar B) 1628-1658-yillar C) 1658-1707-yillar D) 1605-1628-yillar
17. Boburiy Jahongirshoh qaysi Buxoro xoni bilan elchilik munosabatlarni davom ettirgan ?  
A) Nodir Muhammadxon B) Subxonqulixon C) Imomqulixon D) Boqimuhammadxon
18. Qaysi boburiyshoh davrida Hindiston-Buxoro munosabatlarida keskinlik yuz bergan ?  
A) Shoh Jahon B) Avrangzeb C) Jahongirshoh D) Akbarshoh
19. O'z o'g'li Abdulaziz tomonidan taxtdan ag'darilgan Nodir Muhammadxon qayerga qochadi ?  
A) Mo'lton B) Eron C) Balx D) Badaxshon
20. Buxoro xoni Nodir Muhammad o'z o'g'li Abdulazizga qarshi kurashish maqsadida kimdan yordam so'raydi ?  
A) Shoh Jahon B) Avrangzeb C) Jahongirshoh D) Akbarshoh
21. Nodir Muhammad boburiylar qo'shinidan yengilib qayerga qochadi ?  
A) Eron B) Badaxshon C) Balx D) Mo'lton

22. Buxoro xoni Abdulazizxon qachon Balxni qamal qiladi ?  
 A) 1647-yil B) 1645-yil C) 1651-yil D) 1649-yil
23. Avrangzeb Olamgir hukmronlik yillarini aniqlang  
 A) 1658-1707-yillar B) 1558-1605-yillar C) 1605-1628-yillar D) 1628-1658-yillar
24. Avrangzeb qaysi Buxoro xonlari bilan elchilik munosabatlarini olib borgan ?  
 A) Imomqulixon va Nodirmuhammad B) Abdulazizxon va Subxonqulixon  
 C) Abdulazizxon va Abulfayzxon D) Subhonqulixon va Ubaydullaxon II
25. Avrangzeb vafotidan keyin boburiylar imperiyasi necha yil yashadi ?  
 A) 140 yil B) 155 yil C) 160 yil D) 150 yil
26. Afg'oniston davlati qachon tashkil topdi ?  
 A) 1736-yil B) 1747-yil C) 1751-yil D) 1740-yil
27. Afg'oniston va Buxoro o'rtasida munsabatlar nima uchun do'stona ruhda bo'lmagan ?  
 A) birining boshqasi hududi evaziga o'z hududlarini kengaytirishga intilishi  
 B) har ikklala tarafning Amudaryoning o'ng sohilidagi o'zbeklarni o'z tasarrufiga olishiga intilishi  
 C) har ikklala tarafning Amudaryoning chap sohilidagi o'zbeklarni o'z tasarrufiga olishiga intilishi  
 D) bu ikkala davlatda bir-biriga dushman sulolalarning taxtda hukm surishi
28. Afg'oniston hukmdori Ahmadshoh hukmronlik yillarini aniqlang  
 A) 1747-1773-yillar B) 1747-1774-yillar C) 1748-1773-yillar D) 1747-1772-yillar
29. Qachon afg'on hukmdori Ahmadshoh tomonidan Balx qo'shib olindi ?  
 A) 1768-yil B) 1751-yil C) 1789-yil D) 1747-yil
30. Qachon afg'on zulmiga qarshi Amudaryoning chap sohilidagi o'zbeklar qo'zg'alon ko'taradi va bu qo'zg'alonga Buxoro qo'llab-quvvatlaydi ?  
 A) 1747-yil B) 1789-yil C) 1751-yil D) 1768-yil
31. Qachon afg'on zulmiga qarshi Amudaryoning chap sohilidagi o'zbeklar qo'zg'alon ko'taradi va bu qo'zg'alonga Buxoro amaliy yordam ko'rsatdi ?  
 A) 1789-yil B) 1747-yil C) 1768-yil D) 1751-yil
32. Qaysi Afg'oniston hukmdori 100 ming nafar lashkar bilan Balxga yurish qiladi ?  
 A) Zamonshoh B) Temurshoh C) Mir Mahmud D) Ahmadshoh
33. Qaysi Afg'on hukmdori tomonidan Balx qo'shib olindi ?  
 A) Ahmadshoh B) Mir Mahmud C) Zamonshoh D) Mir Vaysxon
34. Buxoro va Afg'oniston o'rtasidagi taabiiy chegarani aniqlang  
 A) Murg'ob vodiysi B) Pomir tog'I C) Hindikush tog'lari D) Amudaryo
35. Buxoro va Afg'oniston o'rtasida savdo aloqalarida muhim o'rin tutgan shaharni aniqlang  
 A) Kobul B) Xuttalon C) G'azna D) Hirot
36. Buxorodan Hindistonga, Hindistonga Buxoroga Rossiya tovarlari qaysi shahar orqali kirib borgan?  
 A) Xuttalon B) Hirot C) Kobul D) G'azna
37. Sin imperiyasi qaysi yillarda Sharqiy Turkistonni bo'ysundirdi?  
 A) 1755-1759-yillar B) 1753-1759-yillar C) 1756-1759-yillar D) 1754-1759-yillar
38. Qachon Xitoy-Qo'qon munosabatlari yanada keskinlashdi?  
 A) XIX asrning 10-yillari B) XIX asrning 30-yillari  
 C) XIX asrning 40-yillari Sharqiy Turkistonda Sin imperiyasiga qarshi qachon qo'zg'alon ko'tarildi?  
 D) XIX asrning 20-yillari
39. 1829-yilda Xitoy hukumati .....
- 1) Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritiladigan savdo ishlarini ta'qiqlaydi,
  - 2) Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritiladigan savdo ishlarini kengaytirdi
  - 3) markaziy osiyolik savdogarlarning aksariyat qismini haydaydi
  - 4) markaziy osiyolik savdogarlarni Sharqiy Turkistonga kirishlariga ruxsat berdi
  - 5) markaziy osiyolik savdogarlarning mol-mulklarini musodara qiladi
- A) 2 B) 1, 3, 5 C) 4 D) 2, 4
40. Qo'qon xoni Muhammad Ali sharqiy turkistonliklarning Xitoyga qarshi ozodlik kurashiga rahbarlik qilayotgan Jahongirxo'ja va Yusufxo'jalarga kim boshchiligida yordamchi qo'shin yubordi?  
 A) Muhammadniyoz B) Haqquli C) Qurbonjon dodhoh D) Ibrohim dodhoh
41. Sharqiy Turkistonda Sin imperiyasiga qarshi kim boshchiligida qo'zg'alon ko'tardi?  
 A) Ibrohim dodhoh B) Yusufxo'ja C) Jahongirxo'ja D) Qurbonxo'ja
42. Muhammad Alixondan yordam olgan Yusufxo'ja qayerni egallaydi?  
 A) Yettisuv B) Qashqar C) Yorkent D) Balosog'un

## 39-O'zbek xonliklari va Rossiya munosabatlari (37)

### Testlar

1. Imomqulixonning elchisi Odambiy qachon Moskvaga borib, Mixail Romanov huzurida bo'ldi ?  
A) 1617-yil B) 1619-yil C) 1620-1622-yillar D) 1713-yil
2. Mixail Romanov Odambiy bilan birgalikda qaysi rus elchisini Buxoroga jo'natdi ?  
A) I.Xoxlov B) F.Beneveni C) A.Jenkinson D) B.Cherkasskiy
3. Imomqulixon I.Xoxlovni qabul qilib, uning qaysi iltimosini bajardi ?  
A) 23 nafar rus asirlarini ozod qilish B) savdo aloqalarini rivojlantirish  
C) Rossiya tobeligiga o'tish D) rus savdogarlardan olinadigan boj miqdorini kamaytirish
4. I.Xoxlov qaysi yillarda Buxoroda bo'lgan ?  
A) 1713-yil B) 1617-yil C) 1620-1622-yillar D) 1619-yil
5. XVI-XVII asrlarda Buxoro va va Xiva xonliklariga Rossiyadan necha marta elchilar kelishgan ?  
A) 2 marta B) 4 marta C) 12 marta D) 5 marta
6. Imomqulixonning 1619-yil qaysi elchisi Moskvaga borib, Mixail Romanov huzurida bo'ldi ?  
A) Qulibek B) Xoja Nafas C) Muhammadqozi D) Odambiy
7. 1583-1600-yillarda Moskvaga qaysi davlatning elchilari 5 marta tashrif buyurgan ?  
A) Qo'qon B) Buxoro C) Eron D) Xiva
8. 1583-1600-yillarda Moskvaga qaysi davlatning elchilari 2 marta tashrif buyurgan ?  
A) Xiva B) Qo'qon C) Buxoro D) Eron
9. Qaysi asrdan Rossiya imperiyasining o'zbek xonliklari bilan bo'lgan munosabatlarda tazyiq o'tkazish ustunlik qila boshladi ?  
A) XIX asr B) XVI asr C) XVIII asr D) XVII asr
10. Dastlab 1700-yil qaysi Xiva xoni Pyotr I huzuriga yashirincha elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'raydi?  
A) Sherg'ozixon B) Shohniyoz C) Elbarsxon D) Muhammad
11. 1709-yilda qaysi Xiva taxti vorisi Pyotr I huzuriga yashirincha elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'raydi?  
A) Sherg'ozixon B) Shohniyoz C) Elbarsxon D) Muhammad
12. 1713-yilda Astraxanga kelgan Xiva elchisini aniqlang  
A) Muhammadqozi B) Xoja Nafas C) Qulibek D) Odambiy
13. Pyotr I ga Amudaryo sohillaridagi qumlar oltinga boyligini, sohilda istiqomat qiluvchi aholi ko'p miqdorda oltin yuvib olayotganini qaysi elchi aytgan?  
A) Odambiy B) Xoja Nafas C) Muhammadqozi D) Qulibek
14. Pyotr I O'rta Osiyoni bosib olish uchun ikkita ekspeditsiya tashkil qilgan.Birinчисiga kim rahbarlik qilgan?  
A) Perovskiy B) F.Beneveni C) Bekovich-Cherkasskiy D) I.Buxgols
15. Pyotr I O'rta Osiyoni bosib olish uchun ikkita ekspeditsiya tashkil qilgan.Ikkinчисiga kim rahbarlik qilgan?  
A) Perovskiy B) I.Buxgols C) Bekovich-Cherkasskiy D) F.Beneveni
16. Qachon Xiva xoni Sherg'ozixon Bekovich-Cherkasskiyning qo'shinini hiyla bilan qirib tashlaydi?  
A) 1714-yil B) 1717-yil C) 1715-yil D) 1718-yil
17. Buxgols ekspeditsiyasi 1715-yili.....  
A) Toboldan Irtish bo'ylab Qashqarga yo'l oladi B) Toboldan Itil bo'ylab Yorkentga yo'l oladi  
C) Yoyiqdan Irtish bo'ylab Yettisivga yo'l oladi D) Toboldan Irtish bo'ylab Yorkentga yo'l oladi
18. Buxgols qayerda istehkom quradi?  
A) Issiqko'lda B) Yamishchev ko'li C) Tyanshan tog'lari D) Sirdaryo bo'yi
19. Dastlab qachon Xiva xoni Shohniyoz Pyotr I huzuriga yashirincha elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'raydi?  
A) 1709-yil B) 1700-yil C) 1717-yil D) 1714-yil
20. Nima uchun Buxgols ekspeditsiyasi nima uchun orqaga qaytgan?  
A) qalmoqlar hujumiga uchrab B) mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchrab  
C) qipchoqlar hujumiga uchrab D) qattiq sovuq tufayli
21. Buxoro xoni Abulfayzxon qachon elchi Qulibekni Pyotr I ning shimoliy urushda shvedlar ustidan qozonilgan g'alaba bilan tabriklab yuborgan?  
A) 1715-yil B) 1725-yil C) 1717-yil D) 1721-yil
22. Pyotr I Abulfayzxonning elchiligiga javoban qachon elchi Florio Benevenini Buxoroga jo'natgan?  
A) 1725-yil B) 1721-yil C) 1715-yil D) 1717-yil
23. F.Beneveni zimmasiga yuklangan vazifalar to'g'ri berilgan javobni aniqlang.  
1) Sharq mamlakatlariga olib boradigan suv va quruqlik yo'llarini o'rganish;  
2) rus savdosini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash  
3) Xiva xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish  
4) xonga rus gvardiyachilarini taklif etish  
5) qayerda qancha Buxoro qo'shini borligini aniqlash va xaritaga tushirish  
6) xonlikdagi qal'a va qo'shinlari ahvolini o'rganish  
7) Eron va Buxoro munosabatlarini o'rganish  
A) 2, 4, 6, 7 B) 1, 2, 4, 6 C) 2, 4, 5, 6 D) 1, 3, 5, 7
24. Qaysi Xiva xoni 1717-yil Bekovich-Cherkasskiyning qo'shinini hiyla bilan qirib tashlaydi?  
A) Muhammad Aminxon B) Abulg'ozixon C) Elbarsxon D) Sherg'ozixon
25. F.Beneveni Buxoroda necha yil turdi?  
A) 3, 5yil B) 4 yil C) 2, 5 yil D) 3 yil
26. F.Beneveni qachon Peterburgga qaytib ketgan?  
A) 1717-yil B) 1725-yil C) 1715-yil D) 1721-yil
27. O'rta Osiyo xonliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni ochiq va shifrlangan xat orqali jo'natib turgan rus elchisini aniqlang.  
A) Danilevskiy B) F.Beneveni C) A.Byorns D) I.Xoxlov
28. Buxoro xoni Abulfayzxon 1717-yil qaysi elchini Pyotr I ning shimoliy urushda shvedlar ustidan qozonilgan g'alaba bilan

**tabriklab yuborgan?**

A) Muhammadqozi B) Odambiy C) Xoja Nafas D) Qulibek

**29. Qachon Kichik, O'rta, Katta juzga bo'lingan qozoq sultonlari o'rtasida kurash kuchaygan?**

A) XVIII asrning so'ngi choragi B) XVIII asrning ikkinchi choragi C) XVIII asrning birinchi choragi

D) XVIII asrning uchinchi choragi

**30. Qachon va qaysi Kichik juz sultoni Rossiyaga elchi jo'natib, Rossiya tobeligiga o'tish istagini bildiradi?**

A) 1730-yil Abulxayr B) 1739-1740-yillar-Semekexon C) 1747-yil-Eshim Sulton D) 1732-yil –Bukey sulton

**31. Qachon Kichik juz Rossiya tobeligiga o'tgan?**

A) 1739-1740-yillar B) 1747-yil C) 1732-yil D) 1744-yil

**32. Qachon va kim boshchiligidagi O'rta juz Rossiya tobeligiga o'tgan?**

A) 1732-yil –Bukey sulton B) 1747-yil-Eshim Sulton C) 1739-1740-yillar-Semekexon

D) 1730-yil Abulxayr

**33. Pyotr I Abulfayzxonning elchiligiga javoban 1721-yil qaysi elchini Buxoroga jo'natgan?**

A) A.Byorns B) Danilevskiy C) I.Xoxlov D) F.Beneveni

**34. Qachon Katta juz Rossiya tobeligiga o'tgan?**

A) 1747-yil B) 1732-yil C) 1744-yil D) 1739-1740-yillar

**35. "Orol dengizida Rossiya bayrog'ini ko'tarish", "Buxoro va undan Hindistonga" boradigan yo'lni ochishi, oltin konlarini izlashni davom ettirishga kim mas'ul etib tayinlangan?**

A) A.Jenkinson B) Kirillov C) F.Beneveni D) A.Byorns

**36. Kirillov qachon Or qal'asini qurdirgan?**

A) 1734-yil B) 1725-yil C) 1730-yil D) 1735-yil

**37. Yoyiq va Irtish sohillari (Sibir) da istehkomlar barpo etgan shaxsni aniqlang**

A) F.Beneveni B) Kirillov C) B.Cherkasskiy D) I.Buxgols

## 40-Markaziy Osiyo uchun Rossiya-Angliya raqobati (30)

### Testlar

1. Qachondan Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarida Markaziy Osiyo xonliklarining ahamiyati yanada orta bordi?  
A) XIX asrning birinchi yarmi B) XVIII asrning birinchi yarmi C) XVIII asrning ikkinchi yarmi D) XIX asrning ikkinchi yarmi
2. Qaysi asrlarda rus sarmoyasi Markaziy Osiyo bozorlarida yetakchi o'rinni egallagan?  
A) XVII-XVIII asrlar B) XVI-XIX asrlar C) XVIII-XIX asr D) XVI-XVII asrlar
3. O'rta Osiyo xonliklariga ingliz tovarlari qaysi davlat orqali olib kelingan?  
A) Hindiston B) Eron C) Xitoy D) Rossiya
4. "Orol dengizida Rossiya bayrog'ini ko'tarish", "Buxoro va undan Hindistonga" boradigan yo'lni ochishi, oltin konlarini izlashni davom ettirishga qachon senat kotibi Kirillov mas'ul etib tayinlangan?  
A) 1734-yil B) 1730-yil C) 1735-yil D) 1725-yil
5. Qaysi yarmarkada rus savdogarlaridan tashqari o'zbek xonliklari, Eron va Hindistondan kelgan savdogarlar ham qatnashgan?  
A) Nijniy Novgorod B) Nijegorod C) Astraxan D) Moskva
6. Qaysi asrda Rossiya o'zbek savdogarlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi?  
A) XIX asr o'rtalari B) XVII asr oxirlari C) XVIII asr boshlari D) XIX asr boshlari
7. "Orol dengizida Rossiya bayrog'ini ko'tarish", "Buxoro va undan Hindistonga" boradigan yo'lni ochishi, oltin konlarini izlashni davom ettirishga mas'ul etib tayinlangan Kirillov kim edi?  
A) senat kotibi B) qo'mondonlik vakili C) harbiy maslahatchi D) Orenburg gubernatori
8. O'rta Osiyo masalasida Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasida raqobat qachon kuchayib ketdi?  
A) XIX asrning birinchi yarmi B) XIX asr ikkinchi yarmi C) XVIII asr oxirlari D) XVIII asr boshlari
9. Murkford qachon Buxoroga kelgan?  
A) 1826-yil mart B) 1839-yil yanvar C) 1831-yil dekabr D) 1825-yil fevral
10. Qaysi ingliz ekspeditsiyasi tarkibida 70 kishi bo'lgan?  
A) Volf B) A.Byorns C) Murkford D) Berg
11. Qaysi ingliz elchisi 80 sandiq turli xil mollar bilan Buxoro qushbegisiga uchrashgan?  
A) A.Byorns B) Volf C) Berg D) Murkford
12. Qaysi ingliz elchisi Buxoro xonligini har tomonlama o'rganishga, mahalliy hukmdorlar orasida inglizlarga tarafdor guruhni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan?  
A) Murkford B) Volf C) Berg D) A.Byorns
13. Rus hukumati qachon rus elchisi Berg boshchiligida Ustyurtga ekspeditsiya yuborib, Markaziy Osiyoga boradigan yo'llarni yanada aniqroq belgilab oldi?  
A) 1832-yil B) 1825-yil fevral C) 1826-yil D) 1839-yil
14. Qaysi ingliz josusi o'zini arman savdogari deb tanitgan, qo'lida hind va afg'on savdogarlarining tavsianomalari bo'lgan?  
A) Volf B) A.Byorns C) Berg D) Murkford
15. Murkford 1825-yil fevral oyida qayerga kelgan?  
A) Toshkent B) Buxoro C) Xiva D) Qo'qon
16. Angliya qachon Afg'onistonga harbiy harakatlar boshladi va Rossiya-Buyuk Britaniya munosabatlari keskinlashib ketdi?  
A) 1840-yil B) 1839-yil C) 1838-yil D) 1837-yil
17. O'rta Osiyoga kelib turgan ingliz josuslari kimlar?  
1) Murkford 2) Jeyms Ebbot 3) Florio Beneveni 4) Charlz Stoddort 5) Konnoli 6) Volf 7) Richard Shekspir 8) Berg  
A) 1, 3, 5, 7, 8 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 C) 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 4, 5, 6, 7
18. Rus hukumati qaysi rus elchisi boshchiligida Ustyurtga ekspeditsiya yuborib, Markaziy Osiyoga boradigan yo'llarni yanada aniqroq belgilab oldi?  
A) Berg B) I.Xoxlov C) F.Beneveni D) Perovskiy
19. Rossiya imperiyasi Xiva xonligiga birinchi harbiy yurishni qachon boshlagan?  
A) 1839-yil B) 1838-yil C) 1840-yil D) 1837-yil
20. A.Byorns qachon Buxoroga kelgan?  
A) 1826-yil B) 1839-yil C) 1832-yil D) 1825-yil fevral
21. Perovskiy qaysi hududning general-gubernatori?  
A) Aralsk B) Saratov C) Orenburg D) Moskva
22. Perovskiy nima uchun orqaga qaytgan?  
A) sovuq va yem-hashakning tugashi B) mahalliy aholining qattiq qarshiligi  
C) jazirama issiq va otlarga o'lat tegishi D) oziq-ovqatning tugashi
23. 1847-yilda Rossiya Markaziy Osiyoga olib boradigan yo'lda ikkita istehkom qurdiradi. Bular qaysilar?  
1) Aralsk shahri yaqinidagi Raim 2) Yettisuv Olatog'idagi Kopal 3) Or daryosi bo'yidagi Orenburg  
A) Issiqko'k yaqinidagi Verniy  
A) 2 va 3 B) 1 va 4 C) 1 va 2 D) 3 va 4
24. Qaysi sabab Rossiya olib borgan siyosatda harbiy yo'l bilan Markaziy Osiyoni ishg'ol etish tomon burilish ro'y berganligining yaqqol isbotidir?  
A) Raim va Kopal istehkomlarining qurilishi B) F.Beneveni elchiligi  
C) Perovskiy ekspeditsiyasi D) Orenburg va Verniy istehkomlarining qurilishi
25. Rossiya imperiyasi Xiva xonligiga birinchi harbiy yurishni kim boshchiligida boshlagan?  
A) Berg B) I.Buxgols C) B.Cherkasskiy D) Perovskiy
26. Qaysi Qo'qon xoni yangi istehkom qurilishidan norozi bo'lgan?  
A) Muhammadalixon B) Xudoyorxon C) Sheralixon D) Murodxon
27. Qaysi hudud Rossiya va Buyuk Britaniya mustamlakalarini ajratib turishi kerak edi?  
A) Afg'oniston B) Hindiston C) Eron D) Tibet
28. G'arbiy Yevropada qachondan boshlab to'qimachilik, qog'oz, shisha ishlab chiqarishda mehnat taqsimotiga asoslangan manufaktura vujudga keldi?  
A) XIV asr o'rtalari B) XVI asr o'rtalari C) XVII asr o'rtalari D) XV asr o'rtalari

29. Bug' mashinasi qaysi asrda ixtiro qilindi?

A) XVI asr

B) XVII asr

C) XIX asr

D) XVIII asr

30. "Maqsadlari aniq ...Bittasi mingboshi bo'lmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o'rniga o'tirmoqchi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi" Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida kimning tilidan bayon qilgan?

A) Homid

B) Yusufbek hoji

C) Otabek

D) Mirzakarim Qutidor

# QAYDLAR UCHUN



**Xatolar**

A large rectangular area with a thin orange border, containing 25 horizontal green lines for writing.